

**IJODIY TAFAKKUR SHAKLLANISHIDA LUG‘ATLARNING O‘RNI
VA AXAMIYATI***p.f.f.d. (PhD) Tursunova Ozoda Faxriddinovna**Buxoro davlat tibbiyot universiteti**Ijtimoiy fanlar kafedrasи*

Annotatsiya. Har qanday shaxsning aqliy taraqqiyoti darajasi ilmiy yoki (bugungi kunda fan bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan) texnikaviy bilimi, ijodiy, kreativ fikr yurita olishi bilan belgilanadi.

Kalit so‘zlar: lugat, tafakkur, ijod, kreativ.

Tafakkur — inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; obyektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni. Tafakkur atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarini, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to‘la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarini ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo‘l bilan aks ettirishga aytildi. Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to‘laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo‘lmagan narsa yoki hodisalarini, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bog‘lanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Tafakkur — inson miyasining alohida funksiyasi. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro munosabatidan iborat. Tafakkur jarayonida insonda fikr, mulohaza, g‘oya, faraz kabilar vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalananadi (qarang: ong). Tafakkur til va nutq bilan chambarchas bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Fikrlash faoliyati nutq shaklida namoyon bo‘ladi. Nutq aloqasi jarayonida insonning hissiy mushohada doirasi kengayib qolmay, orttirilgan tajriba boshqa kishilarga ham beriladi. Inson o‘zining tafakkuri, nutqi hamda ongli xatti-harakati bilan boshqa mavjudotlardan ajralib turadi. U fikr yuritish faoliyatida o‘zida aks ettirgan, idrok qilgan, tasavvur



etgan narsa va hodisalarning haqiqiyligini aniqlaydi, hosil qilingan hukmlar, tushunchalar, xulosalar chin yoki chin emasligini belgilab oladi. Inson tafakkuri orqali voqelikni umumlashtirib, bevosita (bilvosita) aks ettiradi, narsa va hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar, munosabatlar, xususiyatlarni anglab yetadi. Binobarin, inson muayyan qonun, qonuniyat va qoidalarga asoslangan holda ijtimoiy voqealari hodisalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda oqibatini oldindan ko‘rish imkoniyatiga ega.

Tafakkur ko‘pgina fan sohalari
[\(falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, fiziologiya, kibernetika, biologiya\)](#)ning tadqiqot ob’yekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsnинг faollik ko‘rsatish darajasiga ko‘ra bir necha turlarga (ko‘rgazmali harakat, ko‘rgazmali obruzli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va hokazo) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta’lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o‘rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo‘ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o‘zini o‘zi tanqid, baholash, tekshirish, o‘zini o‘zi tekshirish, nazorat qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatlari vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtiolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. [Psixologiya](#) tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo‘lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlarini ham o‘rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko‘p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo etmoqda.

Ijodiy tafakkur – erkin fikrlash va ijodkorlik tamoyili ustuvor bo‘lgan tafakkur shakli. «Tafakkur» arabcha «fikr» so‘zidan yasalgan bo‘lib, o‘ylash, fikrmulohaza yuritish degan ma’nolarni bildiradi. Ijodiy tafakkur esa voqeа-hodisalarни qiyoslash, taqqoslash, tahlil etish asosida fikrni rivojlantirish, uning yangi-yangi qirralarini ochish, shu tariqa bilim va tasavvur dunyosini boyitib borishni anglatadi. Ijodiy tafakkur – insonga xos eng muhim xususiyatlardan biridir. Bu xususiyatdan mahrum bo‘lgan inson bamicoli hamma ishni ko‘r-ko‘rona bajaradigan



qulga aylanib qoladi. Ijodiy tafakkur sohibi o‘z mustaqil fikriga ega bo‘ladi. U hayotga, odamlarga erkin munosabatda bo‘lib, har qanday voqeа-hodisa yuzasidan o‘z fikrini erkin ifoda qila oladi. Ijodiy tafakkur – jamiyatni ma’naviy yangilash, odamlarning ongu tafakkurini yuksaltirish, ezgu g‘oyalar tantanasini ta’minlashning muhim shartidir. SHuning uchun hozirgi vaqtida mamlakatimizda huquqiy demokratik jamiyat qurish jarayonida ijodiy tafakkur rivojiga alohida e’tibor berilmoqda. Mutafakkir so‘zining o‘zagi ham fikrdir. Lekin fikr yuritish qobiliyatiga ega bo‘lgan odamlarning hammasini ham mutafakkir deb bo‘lmaydi. YUksak, teran va qudratli tafakkur sohibi, milliy va umumbashariy qadriyatlar rivojiga beqiyos hissa qo‘sghan buyuk ijodkorlar, alloma va aziz-avliyolar mutafakkir deb atashga [munosibdir](#).

Ijodiy tafakkurning shakllanishi Insonga hali echilmagan masalalarni hal etish imkonini beruvchi bilish jarayonlari ijodiy tafakkur deb ataladi. Uning shakllari va tuzilishi hozircha noma'lum. «Oydinlashish», «ilhom» kabi so'zlar ijodiy tafakkurning birinchi bosqichida hali insonda shakllanmagan tushuncha va mantiqiy operasiyalar shaklida sodir bo'ladigan faktlarni tavsiflaydi, xolos. Bu so'zlar, shuningdek, ijodiy tafakkur natijasi faqat ma'lum tasavvur, tushuncha va operasiyalarni qo'llash emasligini, balki yangi obrazlar, tushun-chalarni hal etishning yangi usullarini yaratishni ham bildiradi. SHunday qilib, ijodiy tafakkur ko'p jihatdan ijodiy tasavvurga yaqinlashadi va hatto uyg'unlashadi. Ijodiy tafakkur uchun asosiysi - «qolip»dan chiqish, voqelikni faqat odatiy tushuncha va tasavvurlardagidek emas, balki har jihatdan atroflicha qamrab olishdir. Ijodiy tafakkur mantiq doirasi bilan chegaralanmagan va shuning uchun narsalar haqidagi tasavvurlarning har qanday, eng noodatiy, fantastik o'zaro munosabatlari, birlashuvi va qayta yaralishiga yo'l qo'yadi.

Inson nafaqat tashqi muhitda, balki o‘zida ham o‘zgarish yasaydi. SHuning uchun ham fan va texnika jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy munosabatlar yangilanayotgan hozirgi zamonda yoshlarni kreativ faoliyat, ijodga o‘rgatish, ijodiy qobiliyatli shaxslarni shakllantirish masalalari ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu nuqtai nazardan, oliy o‘quv yurtlari talabalarida ijodiy tafakkur, kreativ faoliyat yurita olishni rivojlantirish muammosini tadqiq etish masalasi hozirgi kunda etarli darajada ūrganilmagan.



Bugungi kunda axborot jamiyatni davrida fan va innovatsion taraqqiyot jamiyat rivojlanishi, shu jumladan uning moddiy, iqtisodiy negizi – ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishini belgilovchi omillar hisoblanadi. Talabalarda ilmiy fakt, g‘oya, gipoteza, konsepsiya, nazariya, ilmiy qonun, ilmiy bilish degan tushunchalar va ilmiy tadqiqotlar olib borish malakalarini hosil qilish uchun zamonaviy oliy ta’lim dasturi bunga javob bera olishi ham maqsadga muvofiq.

Bizning farazimizcha, talabalarni 1-kursdan boshlab ilmiy ijodiy faoliyat yuritishga o‘rgatish mumkin, agarda ularda quyidagi malakalar shakllantirilsa:

- ilmiy faktlar to‘plash;
- ilmiy faraz qilish;
- bashorat qilish;
- sinergetik tafakkur yuritish;
- axborotlarni tanlash va ulardan aniq maqsadda foydalanish;
- adabiyotlar bilan ishlash;
- ilmiy-akademik uslubda yozma va og‘zaki muloqot yuritish.

Badiiy ijodkorlik shakllari esa talabalarning yuksak ma’naviy hissiyotlari va tafakkur yuritish shakllariga bog‘liq bo‘ladi. Talabalarda ijodiy faoliyatga tayyorlik dinamikasi – o‘sib borish jarayonini bosqichma-bosqich o‘rganish natijasida talabalar ijodiy tafakkurining o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladi. Talabalarni o‘z kasbiga ijodiy yondasha olishi darajasida tayyorlash murakkab jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojlari, qadriyatlari, hissiyotlari va intellekti hamda kasbiy va hayotiy motivatsiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Asosiy xulosa shuki, agar talabalarda ijodiy tafakkur haqidagi tasavvurlar kengaysa, kreativ faoliyati motivatsiyasi anglangan bo‘lsa va professional tayyorgarlik bo‘yicha maxsus korreksion metodikalar qo‘llanilsa, ularda ijodiy-kreativ tafakkur yuritishga tayyorlik darajasi izchil o‘sib boradi. SHuningdek, talabalar ilmiy-ijodiy izlanishlari, iqtidorli talabalarni qo‘llabquvvatlash, fan olimpiadalari, talabalar ilmiy konferensiyalari, ilmiy va badiiy to‘garaklarning samaradorligi ham ularda ijodkorlikka qiziqish va motivatsiyani hamda tegishli malakalarning hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Talabalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish orqali:



- oliy ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi sifati va samaradorligi oshadi;
- jamiyatda intellektuallar, ijodkorlar, raqobatbardosh zamonaviy kadrlar sonini oshirish va shu yo‘l bilan jamiyatimiz nufuzini dunyo miqyosida oshirishga erishamiz;
- kadrlar raqobatbardoshligi, saviyasi, mehnat va ishlab chiqarish samaradorligi, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik darjasи oshadi. Bu esa o‘z navbatida, albatta, jamiyatimizning kelajakdagi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

2. Batiшев GS. Filosofskaya konsepsiya cheloveka i kreativnosti v nasledii S.L.Rubinshteyna // Voprosы filosofii, 1989. - №4176. Frene S. Formirovanie lichnosti rebenka i podrostka: Per. s fr-M.: Progress, 1990
3. Normadovich T. M. A MODEL FOR DESIGNING INDIVIDUAL EDUCATIONAL TRAJECTORIES OF STUDENTS-FUTURE TEACHERS OF SCHOOL ORGANIZATIONS //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – T.2. – №. 5. – S. 548-554.
4. Djuraev R.X.Ta’limda interfaol texnologiyalar. Sano-standart, – T., 2010.- 87 b.
5. Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma. –T., Fan, 2004. -182 b.